


## XORAZM VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO`RSATKICHLARI


### Turistik faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar va ular tomondan xizmat ko`rsatilgan shaxslar soni (2012-2016 yillar)

2016 yilda faoliyat yuritgan turistik firmalar soni 5 tani tashkil qilgan, 2012 yilga nisbatan 3 taga ko`p. Ular tomonidan xizmat ko`rsatilgan shaxslar soni 2012 yilda 121,9 ming nafarni tashkil qilgan bo`lsa, 2016 yilda 124,4 ming nafarga yetgan.(1-2-rasm)

1-rasm



2-rasm



**2016 yilda sotilgan sayyohlik yo`llanmalarining soni va qiymati**

	Soni, birlik	Qiymati, mln.so`m
<b>Sotilgan sayyohlik yo`llanmalari jami</b>	<b>2779</b>	<b>354,8</b>
Ulardan bevosita aholiga	2779	354,8
shu jumladan:		
O`zbekiston hududi bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga	77	115,8
Chet el mamlakatlari bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga	58	10,8
O`zbekiston xududi bo`yicha MDH fuqarolariga	2612	291,9
O`zbekiston xududi bo`yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	32	36,3

2016 yilda sayyohlik yo`llanmalarining 100,0 foizi (2779 dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan. Jumladan Respublika hududi bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga 77 dona (2,8 foiz), MDH fuqarolariga 9 dona (0,3 foiz), boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga 32 dona (1,2 foiz) yo`llanma sotilgan. Shuningdek chet el mamlakatlari bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga 58 dona yo`llanma sotilgan.

**Mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalari (2012-2016 yillar)**


	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalari soni.birlik	30	31	49	52	44
Ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.birlik	29	30	48	51	44
Ulardagi joylar.ming o`rin	1,6	1,7	1,8	3,7	2,1

Ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar .ming o`rin	1,5	1,5	1,6	1,8	2,1
Joylashtirilgan shaxslar.ming kishi	69,2	69,7	64,5	61,6	72,0
Ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar .ming kishi	62,2	62,9	59,8	58,0	72,0

2016 yilda mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalari soni 44 tani tashkil qildi va 2012 yilga nisbatan 46,7 foizga (14 ta) ko`paydi. Ulardagi o`rinlar soni 2012 yilga nisbatan 31 foizga (496 o`rin) ko`payib, 2116 o`ringa yetdi. Mehmonxonalarga joylashgan shaxslar soni 2016 yilda 72005 kishini tashkil qilib, 2012 yilga nisbatan 4,1 foizga (2844 nafar) ko`paydi.

### 2016 yilda Xorazm viloyatiga kelgan shaxslarning safar maqsadlari bo`yicha taqsimoti, kishi

3-rasm



2016 yilda Xorazm viloyatiga kirib kelgan shaxslarning 72,9 foizi (52485 nafar) ta'til, bo'sh vaqt va dam olish yuzasidan, 24,6 foizi (17760 nafar) ish yuzasidan, 0,3 foizi (253 nafar) qarindoshlarini yo`qlash uchun, 0,019 foizi (14 nafar) davolanish maqsadida, 2,0 foizi (1443 nafar) ziyorat qilish maqsadida, 0,069 foizi (50 nafar) boshqa shaxsiy maqsadida, 24,6 foizi (17760 nafar) ish yuzasidan kelgan.

Xorazm viloyat statistika boshqarmasi  
 Ijtimoiy soxa statistikasi bo`limi  
 Nashr uchun ma`sul K.Ataeva  
 Tel: (0371)224-65-21